

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA "DISKURS" TUSHUNCHASI TALQINLARI

Xayitboyeva Zilola Kurbannazarovna

o'qituvchi-stajyor

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida "diskurs" tushunchasining talqinlari, uning matn va nutq bilan munosabati hamda zamonaviy lingvistikadagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'zbek va xorijiy tilshunos olimlarning diskursga oid nazariy qarashlari qiyosiy-analitik asosda o'rganilib, diskursning pragmatik, kognitiv, kommunikativ va ijtimoiy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, diskursning matndan kengroq tushuncha ekanligi, uning ekstralingvistik omillar bilan uzviy bog'liqligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida diskurs zamonaviy o'zbek tilshunosligining muhim va istiqbolli ilmiy kategoriyalaridan biri ekanligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: diskurs, matn, nutq, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, ekstralingvistik omillar, badiiy diskurs, diskurs tahlili.

KIRISH

So'nggi yillarda zamonaviy tilshunoslikda "diskurs" tushunchasi keng muhokama qilinayotgan dolzarb ilmiy kategoriyalardan biriga aylandi. U nafaqat matn yoki nutq bilan bog'liq til hodisasi, balki ijtimoiy, madaniy, psixologik va pragmatik omillar bilan uzviy aloqador murakkab kommunikativ jarayon sifatida talqin qilinmoqda. Shu sababli diskurs masalasi bugungi kunda pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, matn lingvistikasi, sotsiolingvistika va lingvokulturologiya kabi yo'nalishlar kesimida o'rganilmoqda.

O'zbek tilshunosligida ham diskurs tushunchasini izohlash, uning matn va nutq bilan munosabatini belgilash, og'zaki va yozma shakllarini farqlash, shuningdek, siyosiy, publitsistik, ilmiy, badiiy, tibbiy va kundalik muloqot



diskurslarini tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida diskurs tushunchasiga berilgan talqinlar, turli mualliflarning nazariy yondashuvlari va ularning umumiy xulosalari qiyosiy-analitik tarzda ko'rib chiqiladi.

MUHOKAMA

Biz o'zbek va xorijiy tilshunos olimlarning diskurs tushunchasiga oid qarashlari, ularning nazariy asoslari hamda asosiy xulosalari qiyosiy tarzda keltiramiz. Tahlil materiallari diskurs tushunchasining ko'p qirrali va fanlararo xususiyatga ega ekanligini, shuningdek, uning zamonaviy tilshunoslikda muhim nazariy kategoriya sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi.

N.Y.Abdunazarovanning maqolasida [1] diskurs tushunchasi pragmatik va kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Muallif diskursni zamonaviy tilshunoslikning muhim muammolaridan biri sifatida baholab, uning lingvistik, ijtimoiy va kommunikativ xususiyatlarini yoritadi. Diskurs va matn munosabati, diskursning janriy xususiyatlari hamda ekstralingvistik omillar bilan bog'liq jihatlariga alohida e'tibor qaratadi. Tadqiqot natijasida N.Yu.Abdunazarova diskursning ko'p qirrali va keng qamrovli hodisa ekanligi haqida xulosaga kelib, u faqat matn emas, balki adresant maqsadi, ijtimoiy muhit, madaniy va psixologik omillar bilan uzviy bog'langan harakatdagi nutq ekanligini ta'kidlaydi.

O.U.Ablakulovanning tadqiqoti [2] diskurs tushunchasining kelib chiqishi, uning turli fan sohalarida o'rganilishi, g'arb va sharq olimlarining nazariy qarashlari hamda badiiy diskursning ahamiyati tahliliga bag'ishlangan. Muallif diskursni fanlararo tadqiqot obyekti sifatida baholab, uni tilshunoslik, psixologiya, falsafa, sotsiologiya, semiotika va adabiyotshunoslik bilan bog'liq holda o'rganadi. Maqolada ta'kidlanishicha, diskurs nafaqat til birliklari yig'indisi, balki lisoniy va nolisoniy omillarni o'z ichiga olgan ijtimoiy muloqot jarayonidir va badiiy diskurs orqali madaniy tafakkur va inson tajribasini anglash mumkin.

M.K.Ibotova [3] va D.N.Sarbarova [11] tadqiqotlarida "diskurs" tushunchasining kelib chiqishi, jahon va o'zbek tilshunosligidagi talqinlari hamda



unga nisbatan turli lingvistik yondashuvlar tahlil qilingan va diskursning matn bilan munosabati, uning og'zaki va yozma turlari, shuningdek siyosiy, publitsistik, ilmiy va badiiy diskurs kabi ko'rinishlari haqida fikr yuritilgan. Mualliflarning xulosasiga ko'ra, diskurs matnga nisbatan kengroq va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham lisoniy faoliyat jarayoni, ham ushbu faoliyatning mahsuli hisoblanadi va til, jamiyat munosabatlarini anglashda muhim nazariy ahamiyatga egadir.

S.T.Israilova, D.Jumanovalar tomonidan e'lon qilingan maqolada [4] "diskurs" tushunchasi pragmatik va kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Mualliflar diskursning murakkab nutqiy-kommunikativ hodisa ekanligi haqida xulosaga kelib, u nafaqat matn, balki uni anglash uchun zarur bo'lgan ekstralingvistik omillar – intonatsiya, imo-ishora, psixologik va ijtimoiy kontekstni ham qamrab oladi. Diskurs insonning ijtimoiy va kommunikativ ehtiyojlari bilan bog'liq holda doimiy o'zgarib turuvchi dinamik hodisa sifatida baholanadi.

F.Maxmudovanning ilmy tadqiqoti [5] "diskurs" tushunchasi, uning asosiy xususiyatlari va diskurs tahlilidagi nazariy yondashuvlarni o'rganishga bag'ishlangan va diskurs ijtimoiy, madaniy va psixologik omillarni qamrab oluvchi murakkab kommunikativ birlik sifatida tavsiflangan. Adabiyotlar tahlili natijasida muallif diskursning nafaqat til hodisasi, balki ijtimoiy munosabatlar va madaniy jarayonlar bilan uzviy bog'liq kommunikativ voqelik ekanligi haqida xulosaga keladi va diskursni ijtimoiy ongni shakllantirishda muhim vosita sifatida baholaydi.

N.A.Muxamadiyeva [6] va G.Rayxonova [8] o'z tadqiqotlarida "diskurs" tushunchasini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilib, uni murakkab kommunikativ hodisa sifatida talqin qiladilar. Bundan tashqari, mualliflar diskurs insonlar o'rtasida fikr almashish, muloqot qilish va axborot yetkazishning ijtimoiy-kommunikativ shakli sifatida namoyon bo'lishi, ayniqsa, badiiy diskurs orqali his-tuyg'ular, estetik qadriyatlar va madaniy ma'nolar almashinuvi amalga oshishini ta'kidlanadi.

D.T.Pulatovanning ta'kidlashicha [7] diskurs konsepsiyasining mazmuni, uning matn bilan o'zaro bog'liqligi hamda kommunikativ, kognitiv va pragmatik



xususiyatlarga egalini bilan tavsiflanadi. Maqolada Moskva va Volgograd ilmiy maktablarining diskurs haqidagi yondashuvlari hamda ilmiy diskurs doirasidagi kognitiv-pragmatik strategiyalar tahlil qilinadi. Muallif xulosasiga ko'ra, matn diskurs jarayonining faqat fiksatsiyalangan natijasi bo'lsa, diskurs esa kognitiv, kommunikativ va madaniy omillar bilan bog'liq ijtimoiy harakat sifatida namoyon bo'ladi.

K.Sh.Rizayevaning [9] ishida "diskurs" tushunchasining shakllanish tarixi hamda zamonaviy lingvistikadagi o'rni o'rganiladi. Muallifning fikricha, diskurs nafaqat matn yoki nutq, balki ijtimoiy, psixologik va madaniy kontekst bilan uzviy bog'liq jarayondir.

M.U.Saidova, N.A.Nadirxanova [10] diskursni o'rganishda g'arb va sharq tilshunoslarining qarashlariga tayanib, uning tilshunoslik, falsafa, sotsiologiya va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog'liq ekanini ta'kidlaydilar. Maqolada diskursning dinamik xususiyati matnning statik tabiatidan farq qilib ko'rsatiladi, ya'ni diskurs muloqot jarayonida shakllanadigan jonli kommunikativ faoliyat sifatida tushuniladi.

Maqolada matn va diskurs tushunchalarining o'zaro munosabati pragmalingsvistika va diskurs nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Muallif diskursni nutqiy muloqot jarayoni, ijtimoiy kontekst va kommunikativ faoliyat bilan bog'liq holda o'rganadi. Nazariy asos sifatida Zellig Harris, Teun van Deyk, Mikael Stabbs, H. Haberland, I.K. Arxipov, Ye.S. Kubryakova hamda Sh. Safarov kabi olimlarning qarashlariga tayaniladi. Maqolada, ayniqsa, matnning statik, diskursning esa dinamik xususiyatini ajratib ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilgan.

M.R.Uraimshikova [12] tomonidan diskurs tushunchasi va uning muloqot vositasi sifatidagi o'rni o'zbek tili kontekstida nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Muallif diskurs tilning oddiy birliklari yig'indisi emas, balki ijtimoiy munosabatlar, idenitet, mafkura va hokimiyatni shakllantiruvchi kompleks kommunikativ jarayon ekanligi haqida xulosaga keladi. Muallifning fikricha, diskurs tahlili til va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berishda samarali metodologik vosita hisoblanadi.



F.Yakubov [13] “diskurs” va “matn” tushunchalarining mazmun-mohiyati, ularning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari hamda tilshunoslikdagi turli nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. Muallif diskursni ekstralingvistik, pragmatik, ijtimoiy-madaniy va psixologik omillar bilan bog‘liq kommunikativ hodisa sifatida o‘rganadi. Muallifning fikricha, matn faqat struktura-ma’noviy parametrlar bilan cheklansa, diskurs muloqot ishtirokchilari, kommunikativ vaziyat, maqsad va ijtimoiy kontekstni ham qamrab oladi. Maqolada diskurs “harakatdagi nutq” sifatida talqin qilinib, u tildan foydalanish jarayoni bilan uzviy bog‘liq ekani ta’kidlanadi.

XULOSA

Ko‘rib chiqilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilshunosligida “diskurs” tushunchasi yagona va qat’iy ta’rifga ega emas, balki turli nazariy yondashuvlar asosida talqin qilinmoqda. Ayrim tadqiqotlarda diskurs matnga nisbatan kengroq tushuncha sifatida qaralsa, boshqalarida u nutqiy faoliyat jarayoni, ijtimoiy-kommunikativ voqelik, madaniy ma’no yaratish mexanizmi yoki pragmatik maqsadga yo‘naltirilgan muloqot shakli sifatida izohlanadi. Umumiy jihat shundaki, barcha mualliflar diskursni faqat til birliklari yig‘indisi emas, balki kontekst, adresant va adresat, kommunikativ maqsad, ijtimoiy muhit va ekstralingvistik omillar bilan bog‘liq hodisa sifatida baholaydilar.

Shunday qilib, o‘zbek tilshunosligida diskurs tadqiqi hali ham rivojlanish jarayonida bo‘lib, uning nazariy asoslarini yanada chuqurlashtirish, turli diskurs turlarini milliy til materialini asosida tahlil qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy, siyosiy, ilmiy, ommaviy axborot vositalari va kundalik muloqot diskurslarini qiyosiy o‘rganish til va jamiyat, til va madaniyat, til va shaxs munosabatlarini yanada teranroq anglash imkonini beradi. Demak, diskurs tushunchasi o‘zbek tilshunosligida zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning muhim va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.



ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdunazarova N.Y. "Diskurs"ni izohlashga bo'lgan turlicha yondashuvlar // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Vol. 2, Issue 4. – B. 1196–1200.
2. Ablakulova O.U. Diskurs tushunchasi va uning tadqiqi // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Vol. 2, Issue 11. – B. 1167–1172.
3. Ibotova M.K. Diskurs tushunchasi va unga lingvistik yondashuvlar // Scientific Progress. – 2023. – Vol. 4, Issue 4. – B. 217–220.
4. Israilova S.T., Jumanova D. Diskurs va uning ilmiy talqini // O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika. – 2024. – Vol. 2 (1). – B. 67–74.
5. Maxmudova F. Diskurs tushunchasi va uning asosiy yondashuvlari // Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. – 2025. – 44-to'plam, 1-qism. – B. 178–179.
6. Muxamadiyeva N.A. Tilshunoslikda diskurs tushunchasi va uning tahlili. Badiiy diskurs // Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o'qitishning psixologik-pedagogik jihatlari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – 2023-yil 2-iyun. – B. 178–180.
7. Pulatova D.T. Diskurs konsepsiyasining mazmuni va matn bilan bog'liqligi // Qo'qon davlat pedagogika instituti ilmiy xabarlari. – 2026. – 2-son. – B. 211–218.
8. Rayhonova G. Tilshunoslikda diskurs tushunchasi va uning tahlili // Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation. – 2024. – Vol. 1, № 6. – B. 264–268.
9. Rizayeva K.Sh. Tilshunoslikda diskurs tushunchasi va uning tarixi // International Scientific and Practical Conference: "Modern Education and Innovative Approaches to Teaching Foreign Languages". – Toshkent, 2025. – B. 224–228.
10. Saidova M.U., Nadirxanova N.A. Diskurs tushunchasi tahlili va tadqiqi // Miasto Przyszłości, 2024. – Vol. 44. – P. 136-138.



11. Sarbarova D.N. Matn va diskurs tushunchalari munosabati // Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o'qitishning psixologik-pedagogik jihatlari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – 2023-yil 2-iyun. – B. 746–748.

12. Uraimshikova M.R. Diskurs tushunchasi va muloqot diskursining ilmiy-nazariy tasnifi // “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya materiallari. – 2025. – B. 148–153.

13. Yakubov F. “Diskurs” yoki matn tushunchasi haqida // Turkologik tadqiqotlar. – Samarqand, 2023. – №1. – B. 50–54.

